

O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligida ochiqlikni ta’minlash uchun quyidagi takliflarni berish mumkin:

1. Interaktiv usulda sohada amalga oshirilayotgan islohotlarni yoritish

Vazirlik sayti va rasmiy sahifalarida infografika, video, foto, reels shakllarida axborotlarni tarqatish. OAV bilan hamkorlikda podkastlar, suhbatlar tashkil qilish.

2. Ommaviy axborot vositalari xodimlari, jurnalistlar uchun kon-geologiya sohasi obyektlari, soha korxonalariga press-tur, media-turlar tashkillashtirish.

“OKMK” AJ, “NKMK” AJ, “Geologiya fanlari universiteti” DM, “O‘zbek geologiya qidiruv” AJ obyektlariga, korxonalariga, zavodlari faoliyati haqida ma’lumotlar berish.

3. Brifinglar tashkillashtirish.

Sohada faoliyat yuritayotgan rahbarlar, geologlar, metallurqlar, kon-geologiya sohasining boshqa mutaxassislari ishtirokida muayyan mavzular, yo‘nalishlar, tegishli qarorlar yuzasidan brifinglar o‘tkazish.